

# Rutanni COVID-19 hamda grippning barcha shtammlariga qarshi qo'llashga ruxsat etildi

Bugungi kunga qadar SARS-CoV-2 virusi bilan kasallangan bemorlarni davolash uchun samarador, organizmga zararli ta'sir ko'rsatmaydigan dori vositalari yo'q va shu sababli bunday dori vositalarini yaratish o'ta dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.


Koronovirusning hayot jarayoni va ko'payishida hal qiluvchi vazifani virusining ikkita konservativ oqsillari - 3CL proteaza va RNK ga bog'liq - RNK polimeraza bajaradi.

Bugungi kunda COVID-19ni davolashda 3CL proteazaning quyidagi ingibitorlaridan foydalanimoqda:

- Kaletra - (Lopinavir+Ritonavir), OITV-1 va OITV-2 ga qarshi yaratilgan. Davolash dozasi 400 mg/100 mg, bir kunda ikki mahal, 14 kun davomida qabul qilinadi. Preparatning davolash kursini bahosi 2,2 mln so'mni tashkil qiladi.
- Ribaverin – og'ir o'tkir respirator sindromi (SARS) tarqalgan vaqtida yaratilgan. Davolash dozasi 500 mg, kuniga 2-3 marta interferon yoki lopinavir/ritonavir bilan 10 kun davomida qabul qilinadi. Preparatning davolash kursi bahosi 0,4 mln so'mni tashkil qiladi.
- Remsidivir - RNK-ga bog'liq RNK-polimerazaning ingibitori bo'lib, Ebola virusini davolash maqsadida yaratilgan. Qo'llanilish dozasi vena orqali birinchi kuni 200 mg, keyingi 10 kun davomida 100 mg qabul qilinadi. Preparatning davolash kursi bahosi 3,5 mln so'mni tashkil qiladi.
- Favipiravir (Yaponiya) – analogi Avifavir (Rossiya) grippga qarshi yaratilgan. Qo'llanilish dozasi birinchi kuni 1600 mg dan ikki mahal, 2-10 kunlar 800 mg dan 2 mahal qabul qilinadi. Preparatning davolash kursi bahosi 1 mln so'mni tashkil qiladi.

Bu preparatlar faqat birgina nishonni ingibirlaydi hamda qator nojo'ya ta'sirlar mavjud bo'lib, bemor bir necha oy o'zini noxush sezadi.

O'zR FA Bioorganik kimyo instituti hamda Xitoy Fanlar akademiyasi olimlari hamkorlikda *totum Rhus coriaria (sumax)* o'simligidan ajratib olingen **Rutan preparati** SARS-CoV-2 virusiga qarshi yagona samarali dori vositasi bo'lib, u antioksidantlik va antigipoksik xususiyatlarga ega. U SARS-CoV-2 virusining 2 ta muhim ferment tizimini ingibirlaydi. Virusning hujayrada ko'payishi va tarqalishi, patologik va yallig'lanish jarayonini chaqiruvchi oqsillar hosil bo'lishini to'xtatadi hamda kasallarda salbiy holat - "sitokinin bo'roni"ning oldini oladi. Natijada, SARS-CoV-2 virusiga chalingan bemorlarni tuzatish muddati qisqaradi va bemor o'z holatiga tez qaytadi.



SARS-CoV-2 virusiga qarshi qo'llanilayotgan preparatlar dozasini o'rganish natijasida Rutanni og'ir va o'rtacha og'irlikdagi bemorlarni davolashda 0,1 - 0,3 g dozani qo'llash kerakligini aniqlandi.

O'zbekiston Sog'lioni saqlash vazirligi Virusologiya instituti tomonidan "Koronovirus infeksiyali bemorlarni davolash uchun 1-sonli Zangiota maxsus shifoxonasi" klinik bazasida "Rutan tabletkasi, 0,1 g" № 20 preparatining SARS-CoV-2 virusiga qarshi randomezirlangan klinik sinovlariga ko'ra:

1. Rutan preparati 103 ta koronovirus infeksiyasi bilan kasallangan o'rtacha og'irlikda kechayotgan bemorlarda, qayd etilgan dozada sinalganda, COVID-19 orqali chaqirilgan yallig'lanish jarayonining asosiy vositachisi bo'lmish C-reakтив oqsili miqdorining statistik ahamiyatli kamayishi kuzatildi va bu orqali uning aniq yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega ekanligi aniqlandi. Rutan qabul qilgan biron-bir bemorga kasallik davomida oksigenatsiyaga muhtojlik bo'lmadi.
2. Rutan preparatini qabul qilgan sinov guruhi bemorlarini protokol davolanish fonida kasallikning 4-5 kuni davomida COVID-19 virusiga olingan PZR tahlil salbiy bo'ldi.

Klinik sinov natijalariga ko'ra, "Rutan tabletkalari, 0,1 g" №20 o'rtacha og'irlikda kechayotgan o'pka yallig'lanishi 30% bo'lgan COVID-19 kasalligiga hamda grippning barcha shtammlariga qarshi dori vositasi sifatida qo'llash uchun ruxsat etildi.

Rutan preparati substansiysi FA Bioorganik kimyo instituti tomonidan ishlab chiqariladi, uning "Rutan tabletkalari, 0,025 g" №20 va "Rutan tabletkalari, 0,1g" №20 dori shakllarini "CHINA-UZBEKİSTAN MEDICINE TECHNICAL PARK" MChJ xorijiy korxonasida hamda "RADIKS" MChJ tomonidan respublika ehtiyojini to'la ta'minlaydigan miqdorda ishlab chiqariladi. "Rutan tabletkalari, 0,1 g" №20 bilan davolash kursining narxi 0,1 mln so'm atrofida bo'ladi.

## **Muhim!**

Respublikada, shuningdek, butun dunyoda virus tarqalishi bilan bog'liq vaziyat, ko'rilgan choralarga qaramay rivojlanib bormoqda.

Virus tarqalishining asosiy manbai infeksiyaning dastlabki kunlaridagi bemorlar bo'lib, ular virusga test topshirmsandan, o'z holatlarini shamollash yoki gripp deb taxmin qilishi va shu bilan ko'pincha o'zlarini bilmagan holda o'zgalarni ham virus bilan zararlashi va virus tarqalishi kengayishiga olib keladilar.

PZR – diagnostikani har kim ham qila olmaydi va bu juda qimmatga tushishini inobatga olib, shamollashmi, grippmi – bezovtalikning birinchi kundanoq "Rutan tabletkalari, 0,1 g" №20 preparatini qo'llash maqsadga muvofiq bo'lib, u qo'llanishning birinchi soatidan boshlab virusning ko'payishini to'xtatadi va keyinchalik virusning patogen oqsillarini hosil bo'lishiga va kasallikning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Natijada sezilarli asoratlarsiz bemorning tez tiklanishni ta'minlaydi.

Rutan preparati mutlaqo xavfsizdir, bundan tashqari, u samarali antioksidant hisoblanib bemorning kislorod yetishmovchiliga chidamlilagini oshiradi. Bu o'pkasi shikastlangan bemorlarda kuzatiladigan kislorod yetishmovchiligi holatida juda muhim hisoblanadi.

Shifokorlar va mutaxassislar uchun Rutan ta'sirining molekulyar mexanizmi, klinik sinovlari va immun tizimiga ta'siri haqidagi bat afsil ma'lumotlar O'zR FA Bioorganik kimyo instituti ([www.biochem.uz](http://www.biochem.uz)) saytida keltirilgan.